

Influence of Durrani dynasties on the state administration of Afghanistan

Obidjon ABDURAKHMANOV¹

Tashkent State University of Oriental Studies

ARTICLE INFO

Article history:

Received May 2024
Received in revised form
15 June 2024
Accepted 25 June 2024
Available online
15 July 2024

Keywords:

“Durrani Empire”,
“third group”,
“unified Afghan nation”,
“Pashtun Khanate”,
“Pathans”,
“Big Game”

ABSTRACT

This article discusses the impact of the Sadozoi and Barakzoi dynasties of the Abdali (Durrani) tribe of Pashtuns on the state administration of Afghanistan. In addition, factors hindering the process of national unity in Afghanistan are analyzed.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss6/S-pp93-99>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Durraniy sulolalarining Afg'oniston davlat boshqaruviga ta'siri

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

“Durraniylar imperiyasi”,
“uchinchi guruh”,
“yagona Afg'on millati”,
“Pushtun xonligi”,
“patanlar”,
“Katta o'yin”.

Ushbu maqolada pushtunlarning Abdali (Durraniy) qabilasidan bo'lgan Sadozoy va Barakzoy sulolalarining Afg'oniston davlat boshqaruviga ta'siri haqida so'z boradi. Bundan tashqari, Afg'onistonda milliy birlik jarayoning to'sqinlik qiluvchi omillar tahlil qilingan.

¹ Doctoral student, Tashkent State University of Oriental Studies.

Влияние династии Дуррани на государственное управление Афганистана

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

«Дурранская империя»,
«третья группа»,
«единая афганская нация»,
«Пуштунское ханство»,
«патаны»,
«Большая игра».

В данной статье рассматривается влияние династий Садозой и Баракзой племени Абдали (Дуррани) пуштунов на государственное управление Афганистана. Кроме того, анализируются факторы, препятствующие процессу национального единства в Афганистане.

KIRISH

Afg'on davlatchiligining shakllanish tadrijida pushtun sulolalarining katta o'ringa egaligi qariyb uch asrni o'z ichiga qamrab oluvchi pushtunlar tomonidan oliy hokimiyat boshqarilib kelinganligi bilan chambarchas bog'liq. Pushtun sulolalarining davlat boshqaruviga ta'siri muqaddimasini Durraniy qabilasiga mansub sulolalar bilan bog'lash masalaning asl ildizlarini to'liq tushunishga imkon bermaydi, deb aytish uchun yetarli asoslar mavjud. Mazkur masalani chuqur tadqiq etish maqsadlariga erishishda tarixiylik hamda qiyoslash metodlariga tayanish o'rinli bo'ladi. Chunki, zamonaviy Afg'oniston davlatchiligining bunyodkorlari aynan pushtun sulolalar bo'lib, ularning sa'y-harakatlari bilan mustaqillik qo'lga kiritilgan. E'tibor qaratish lozim bo'lgan yana bir jihat shuki, davlat boshqaruviga sulolalarning ta'siri deyilganda umumiy pushtunlarning hokimiyatga ta'sirini tushunmaslik kerak. Zero, pushtun etnosini tuzilishi o'ta murakkab va shu bilan birga qiziqarli jarayondir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR.

Maqolada afg'onshunos olimlar va tadqiqotchilar xulosalariga, shuningdek, pushtu tilidagi ma'lumotlar, davriy nashrlar va internet manbaalariga alohida e'tibor qaratildi. Adabiyotlar tahlilida Durraniy sulolalarning mamlakat ichki siyosatiga, milliy birlikka yerishish jarayoniga ta'siri o'rganib chiqildi. Maqolada tarixiylik, event, kontent, qiyosiy hamda SWOT tahlil usullaridan foydalanildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Afg'onistondagi mavjud etnik birliklarning etnogenezi, tarixi, afg'on davlatchiligida tutgan o'rni hamda bugungi kundagi ahvolini tadqiq etish davomida ularda bo'linishga moyillik nihoyatda kuchli ekanligi namoyon bo'ldi. Xususan, pushtun millatini quyidagi birliklarga ajratgan holda tasniflash mumkin:

1. Qabila;
2. Qabila urug'i;
3. Urug'-aymoq;
4. Urug'lar o'rtasidagi kichik urug'lar;
5. Kichik urug' bo'g'ini;
6. Bo'g'inning boshqa kichik bo'laklari [1].

Shuningdek, pushtun qabilalarini ular yashaydigan joylariga ko'ra ham farqlash mumkin. Jumladan, Pushtunlarning Durraniy qabilalari asosan Afg'onistonning janubida Eron Islom Respublikasi bilan chegara hududlarda hamda janubi-sharqda Pokiston Islom Respublikalari bilan chegara hududlarda istiqomat qilishadi. Gilzoy qabilalari esa mamlakatning shimoliy tomonida, Kobul, Jalolobod, Qandahor kabi viloyatlarida

yashashadi. Bu ikki qabilaga mansub bo'lmagan "uchinchi guruh" qabilalari asosan Poksiton bilan chegara hududlarda hamda mamlakatning janubiy hududlarida balujlarga yaqin joylarda istiqomat qilishadi. Ta'kidlash joizki, aksar hollarda, har bir qabila yoki urug'ga uning asoschisini nomi beriladi. Uning avlodlari ham qabila asoschisining nomiga زوى (*zay* – pushtu tilida farzand ma'nosini bildiradi) so'zining qo'shilishidan hosil bo'lgan atama bilan nomlanadi. Misol uchun, Abdali qabilasining Ahmadzoy urug'ining asoschisi Ahmad ismli shaxs bo'lib, uning avlodlari Ahmadzoy ya'ni Ahmadning farzandi yoki o'g'li degan nomni olgan. Yana bir mashhur pushtun urug'laridan biri Muhammadzaylar bo'lib ularning asoschisi sobiq Afg'oniston amirlaridan biri Do'st Muhammadxon bo'lgan. Darhaqiqat, pushtun qabilalarining nomlanishi qabila boshi yoki urug'ning eng obro'li azozi nomi bilan ataladi.

Pushtun etnik guruhi 60 dan ortiq katta qabilalardan tashkil topagan. Mazkur qabilalar o'z navbatida mayda urug'larga bo'linib ketadi. Antropolog Tomas Barfield pushtunlarni to'rt qismga ajratadi: durroniylar, gilzoylar, gurgushtlar va karlanrilar. Uning ta'kidlashicha, durroniylar (Abdaliy nomi bilan tanilgan) Qaysning birinchi o'g'li avlodlari bo'lib, tarkibiga Achakzoy, Alizoy, Nurzoy, Alikozoy, Barakzoy, Muhammadzoy, Popolzoy, Isoqzoylar kiradi. Gilzoylar (Xalji yoki G'alji deb ham ataladi) Qaysning qiz farzandi avlodlari bo'lib, tarkibiga Sulaymon Xel, Ahmadzoy, Xarrutiy, Hotakiy, Tarakiylar kiradi. Gurgushtlar Qaysning uchinchi o'g'li avlodlari bo'lib, tarkibiga Musa Xel, Safi kabi urug'lar kiradi. Karlanrilar (inglizlar tomonidan "patanlar" deb nomlanadi) kelib chiqishi noma'lum asrab olingan bolaning avlodlari bo'lib, takibiga Tani, Mangal Vardak, Orakzoy, Afridiy, Zadran, Maxsud va Xugianiylar kiradi [2]. Mazkur guruhlar orasida Abdali (Durroniylar) va Gilzoy qabilalari son jihatdan ko'pchilikni tashkil qiladi. Odatda pushtunlarning aksari mazkur ikki yirik qabilaga mansub bo'ladi. Biroq, pushtun etnogenezi kabi ularning etnik tarkibi to'g'risida ham turlicha qarashlar mavjud. Jumladan, ayrim manbalarda pushtunlarni Durroniylar, Gilzoy hamda mazkur ikki guruhga kirmaydigan boshqa "uchinchi guruh"lardan tashkil topganligi keltiriladi [3]. Darhaqiqat, pushtun etnik guruhlari shu kabi turli qabila va urug'lardan tashkil topganligi ma'lum manoda ularning bir millat sifatida birlashishiga monelik qiladi hamda davlat boshqaruvida sulolalarning hokimiyatga egalik qilish uchun kurashlarni keltirib chiqaradi. E'tiborga molik jihat shuki, Abdali va Gilzoy qabilalari o'rtasidagi munosabatning davlat boshqaruviga bevosita ta'siri salmoqlidir.

Sadozoylar sulolasi. Qayd etish kerakki, mustaqil Afg'oniston davlati tashkil topgandan beri o'tgan davr mobaynida oliy hukumat abdali qabilasining Popolzoy va Barakzoy sulolalari tomonidan boshqarib kelindi. Bu haqida Olaf Kero quyidagicha yozadi: "Mustaqil Afg'onistonni yangi hukmdorini tayinlash maqsadida Jamolxon Barakzoy boshchiligida Qandahorda dastlabki Lo'ya Jirga chaqiriladi. Katta kengashda mustaqil davlat rahbari etib yigirma to'rt yoshda bo'lgan Ahmadni saylashadi. Buning asosiy sababi esa Ahmad mansub bo'lgan Popolzoy urug'ining sadozoy sulolasi juda zaif bo'lib, ushbu urug'dan saylangan podshoh maslahatga muvofiq ish qilmasa, taxtdan osongina ag'darilishi mumkinligi edi" [4]. Bilaks, Ahmadshoh tomonidan tashkil etilgan davlat "urroniylar imperiyasi" sifatida nom qozondi. Aytib o'tish o'rinliki, sadozoylar sulolasi mustaqil Afg'oniston davlatining poydevorini yaratib mamlakatning uzoq yillik tarixi yaratilishiga zamin yaratdi. Xususan, ushbu sulola davrida mamlakat tarixidagi dastlabki muntazam armiya tashkil etildi va u eng yirik pushtu qabilalari yashagan hududlarni o'z ichiga oldi. Keyinchalik, uzoq muddatli bosqinchilik urushlari paytida

afg'on bo'lmagan xalqlar yashaydigan keng hududlar ham bo'ysundirildi. Jumladan, 1748–1751-yillarda Ahmadshoh qo'shinlari Panjobni, 1750-yilda Balujiston va Hirotni, 1752-yilda Kashmir va Balxni, 1754-yilda Seyiston va Xurosonni, 1757-yilda Sindni bosib oldi. Ahmadshoh asos solgan imperiyaning poytaxti etib Qandahor tanlandi. Ahmadshoh Durroniy hukmronligining oxiriga kelib, Afg'oniston O'rta Sharqdagi eng yirik davlat, Buyuk Karl imperiyasidan ikki barobar katta hududlarni qamrab oldi. Afg'oniston hukmdorlari Hindiston, Eron va Turkiston viloyatlarining bir qismiga ham ta'sir o'tkazdi.[5] Ta'kidlash o'rinliki, Ahmadshoh hukmronligi davrida Abdali qabilalari o'rtasida nizolar kelib chiqishini oldini olish maqsadida har bir qabila sulolalariga katta lavozimlar berish orqali hukmron rahbarlar o'rtasida diplomatik muvozanat ta'minlagan edi. Bu esa muvozanatli tizim orqali barcha qabila urug'lari teng bo'lishini ta'minlash natijasida mamlakat birdamligini va siyosiy barqarorlik erishdi. Masalan, ular harbiy va mehnat majburiyatlaridan, soliqlardan, bojxona to'lovlaridan va boshqalardan ozod qilindi. Bundan tashqari, ushbu urug'ga mansub oilalar katta yerlarga egalik qiladi [6]. Uzoq yillar davomida mazkur sulolaning oliy hokimiyatni o'z qo'lida saqlab kelishining asosiy sababi sifatida mazkur urug'dan bo'lgan Ahmadshoh Durroniyning mustaqil davlat asoschisi ekanligi borasidagi qarashlar edi. Biroq, qabilalarga berilgan bunday imtiyozlar ularning mamlakatdagi mavqeyini oshib ketishiga hamda rahbarlarning siyosiy qarorlar qabul qilishiga ta'sirni sezilarli darajada kuchayishiga sabab bo'ldi. Natijada, mamlakatni boshqarishda qiyinchiliklar vujudga keladi. Shu sababli Zamonshoh davrida sadozoylardan boshqa qabila va sulolalardan bo'lgan amaldorlarning o'rniga o'z urug'idan bo'lganlarni tayinlandi. Bu harakat boshqa qabilalarning keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Taassufki, tashqi va ichki mojarolar sabab 76 yil hokimiyat boshqaruvidan so'ng sadozoylar sulolasining so'nggi hukmdori Mahmudshohning 1818-yil taxtdan ag'darilishi bilan ushbu sulolaning hukmronligi tugatildi. Garchi, Sulton Ali (1818) va Ayubxon (1819–1823) ham sadozoy suloalsiga mansub bo'lsa-da, ammo, ular qo'g'irchoq hukmdor bo'lib, amalda hokimiyat barakzoylar qo'lga o'tib bo'lgan edi.

Sadozoylar sulolasining bu tarzda hokimiyatni qo'ldan boy berishiga sulola hukmdorlari tomonidan mamlakatdagi tinchlik va barqarorlikni ta'minlovchi quyidagi asosiy omillarga e'tibor qaratilmaganligi sabab bo'ldi.

Birinchidan, sulola davrida bo'lgan to'qnashuvlar zamirida doimo etnik raqobat va qavmlar o'rtasidagi kuchlar nisbati asosiy rol o'ynab kelgan. Buning asosiy sababi, pushtunlarda millatchilik ruhiyatining nisbatan kuchliligi, boshqa millat vakillarini mensimasligi natijasida etnik ozchilik guruhlarining o'z manfaatlarini siyosiy hokimiyatda amalga oshirishga intilishi deb aytish mumkin. Shu sababli sulola hukmdorlar tomonidan mustaqil davlatda istiqomat qiluvchi etnik guruh vakillarining manfaatlarini hisobga olish, ularning bir-biriga bo'lgan munosabatlarida o'zaro tenglik, hurmat va ishonchni mustahkamlash, ular o'rtasida millatchilik tuyg'usini shakllantirishga undovchi har qanday tashqi ta'sirlarga qarshi kurash va eng asosiysi mamlakat yaxlitligiga tahdid soladigan etnoslararo mojarolarni oldini olish o'rniga kelajakda davlatning hududiy yaxlitligiga jiddiy tahdidni keltirib chiqarishga sabab bo'ladigan noto'g'ri siyosat olib bordi. Jumladan, gilzoylarning yerlari tortib olinib, barakzoylarning ham huquqlari cheklandi.

Ikkinchidan, faqat o'z sulolasi manfaatlarini emas, balki etnik masalaning siyosiylashuviga yo'l qo'ymaslik maqsadida barcha etnoslarning haq-huquqlarini ham hisobga olgan holda ichki siyosatda etnoslararo hamjihatlikni ta'minlash zaruriyati

inobatga olinmadi. Zero, ko'p millatli davlat sharoitida etnoslararo munosabatlarni takomillashtirmay, turli millat va elat vakillarining ijtimoiy jarayonlardagi to'laqonli ishtirokini ta'minlamay turib, jamiyat hayotining har tomonlama yangilanishiga, modernizatsiya va demokratlashtirish jarayonlarining ildamlashishiga erishish mumkin emas edi.

Uchinchidan, ta'kidlash lozimki, global va mintaqaviy kuchlarning ta'sir doirasiga tushib qolishga qarshi zaruriy choralar ko'rilmadi. Aksinchi, ichki nizolar avj olgan vaziyatda hokimiyatni saqlab qolish yoki qo'lga kiritish maqsadida sulolalar tashqi kuchlardan yordam olish payiga tushishdi. Bu esa sadozoylar sulolasining ham ichki, ham tashqi dushmanlari ta'siriga tushib qolishiga olib keldi.

To'rtinchidan, sulolaning ichida hokimiyat uchun kurash uzuluksiz davom etishi natijasida siyosiy vazaiyat izdan chiqdi.

Lekin, Popolzoy qabilasidan bo'lgan sulolalar Afg'oniston davlat boshqaruvida o'z o'rnini saqlab qoladi. Buni yorqin misoli mazkur sulolaning vakillari uzoq davr mobaynida Afg'onistonni boshqarib kelganidir. Xususan, Afg'oniston Islom Respublikasining sobiq Prezidentlari Hamid Karzay va Ashraf G'ani ham ushbu sulolaning vakillari bo'lgan.

Barakzoylar sulolasi. Afg'oniston davlatchilik tarixida katta mavqega ega bo'lgan durroniylar qabilasidan yana biri barakzoylar sulolasi 1826-yilda davlat boshqaruvini sadozoylardan o'z qo'lga oladi. Qariyb ikki asr oliy hokimiyatni boshqargan sulolaning yorqin namoyandasi Do'st Muhammadxon bo'lib, manbalarda Muhammadzoylar sulolasining asoschisi sifatida qayd etiladi.

Barakzoylar sulolasining davlat boshqaruviga ta'siri juda keng va ko'p qirrali bo'lib, masalaning u yoki bu jihatlarini o'zida namoyon etadi. Biroq, sulolaning hokimiyatga ta'sirini tahlil qilishda ikkita eng muhim birlamchi omil mavjudki, bu omillar masalaning mohiyati haqida yaxlit tasavvur va yaqindan tanishish imkonini beradi:

Ichki omil: Qayd etish joizki, ushbu sulola davrida etnoslar va sulolalar o'rtasidagi raqobatda yutib chiqish, hokimiyatni saqlab qolish maqsadida sulola vakillariga davlat boshqaruvida muhim lavozimlar berildi. Misol uchun, Muhammad Nodirxon davrida konstitutsiyaning boshqaruvga tegishli ikkinchi moddasi quyidagicha bayon qilinadi. "Afg'oniston hukumatining ichki va tashqi ishlarini boshqarish amir hukumati tasarrufida bo'ladi. Amirga barcha boshqaruv vakolatlariga ega bo'lib, mamlakatning barcha viloyatlari va qismlarini amir qo'l ostiga oladi. Bu davrda markaziy boshqaruv butun hokimiyat amir hokimiyati ostida edi. Shuningdek, konstitutsiyaning yettinchi moddasida amirning vakolatlari quyidagilardan iborat etib belgilangan: mansablarga tayinlash, unvonlar berish, bosh vazirni tayinlash, vazirlarni tasdiqlash, ularning vazifasini bajarish va o'zgartirish, kengash tomonidan tasdiqlangan shartnomalarni tasdiqlash; milliy deklaratsiya, shariat qonunlariga rioya qilish, himoya qilish va amalga oshirish hamda Afg'oniston harbiy kuchlarining umumiy qo'mondonligi, urush e'lon qilish, tinchlik bitimi va umumiy kelishuvlar Shariat qonunlariga muvofiq avf etish va jazoni kamaytirish" [7] kabi juda katta vakolatlar berildi. Shu bois, ushbu sulola vakillariga an'anaviy imtiyozlar bilan bir qatorda, jinoiy javobgarlikdan ozod qilinib, ular faqat qabila sudi tomonidan jazolanishi mumkin edi. Shuningdek, soliq imtiyozlaridan tashqari, erkak aholiga yillik nafaqa berilar, ayollar esa turmush qurganlarida g'aznadan katta miqdorda mahr puli olar edilar. Mamlakatning eng muhim hududlaridagi oliy harbiy yoki fuqarolik lavozimlari amir nomidan feodal ierarxiyasining eng yuqori pog'onasida turgan uning

oilasi vakillaridan bo'lgan sardorlarga berildi.[8] Bu esa, jamiyatda pushtunlarning mavqeyini yanada oshirishga sabab bo'ldi. Bundan tashqari, ularning davlat boshqaruvi ga ham sezirarli darajada ta'sir o'tkaza boshlaydi. Darhaqiqat, pushtunlarning asosiy qabila guruhlari va ittifoqlari Afg'oniston davlatining shakllanishi va rivojlanishining asosiy tayanchi bo'lgan. Qabilalarning jangovar kuchi va ularning harbiy mahorati amir hokimiyatini va davlat qurolli kuchlarining asosiy elementlarini mustahkamlashning asosiy omillariga aylandi. Muhammad Dovudxonning so'lichilik muhitidan ozod bo'lganidan so'ng, harakatlari uning pushtun kelib chiqishi va pushtun kimligini ko'rsata boshladi. 1975-yil mart oyida Qandahor aholisiga murojaat qilib, "Afg'onistonning mavjud tuzumi milliy negiz va millatchilikka asoslangan edi va shunday bo'ladi" deb ta'kidladi. Shu bilan birga, "millatchilik" davrida avvalgidek, ya'ni qirol davrida ular pushtunlarning eksklyuzivligi g'oyalari va Afg'oniston ruhini haqiqiy va oliy milliy qadriyatlar deb tushundilar. Keyinchalik Afg'oniston Respublikasi Konstitutsiyasida yagona "Afg'on millati"ni ta'minlash qonun bilan mustahkamlab qo'yildi. U 1964-yilgi monarxiya konstitutsiyasi singari Afg'oniston davlatining ko'p millatliligi haqida birir jumla gapirmadi, bu esa tabiiyki, boshqa millatlar orasida pushtunlarga qarshi kayfiyatni qo'zg'atish sabab bo'di [9].

Tashqi omil: Ushbu sulola davrida pushtunlarning davlat boshqaruvidagi o'rni bunday yuqori bo'lishiga tashqi kuchlarning Afg'onistonga ta'siri bilan bog'liq edi. Chunki, Afg'oniston davlatchilik tarixida tashqi kuchlarning mamlakat mustaqilligiga ta'siri shu davrga kelib keskin oshdi. Dastlab, Buyuk Britaniya imperiyasi, so'ngra SSSR, keyinchalik Amerika Qo'shma Shtatlari bevosita Afg'onistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sir ko'rsatdi. Misol uchun, sadozoy sulolasi vakillari o'rtasida taxt uchun kurashlarda inglizlar katta ta'sir ko'rsatdi. Ma'lumki, XIX va XX asrga kelib mamlakat Rossiya va Britaniya Imperiyasi o'rtasida manfaatlar to'qnashgan hududga aylanib qoladi. "Katta o'yin" nomi bilan ataladigan ushbu raqobat natijasida sulolalar o'rtasida hokimiyatni qo'lda saqlab qolish uchun raqobat ham keskinlashadi. Afg'onshunos olim Suhrob Bo'ronov o'z asarida ushbu nazariya qudratli salohiyatga ega davlatlarning Afg'oniston, Markaziy va Janubiy Osiyo hududlarini nazorat qilishga qaratilgan geosiyosiy o'yinlarni anglatuvchi tushuncha ekanligini keltirib o'tadi [10].

Ta'kidlash joizki, afg'on davlatchiligida barakzoilar sulolasi mamlakat sarhadlarini kengaytirish bilan bir qatorda amalga oshirgan islohotlari bilan shuhrat qozonadi. Boshqacha aytganda, ushbu sulola akillaridan Amir Abdurahmon, Amir Omonullaxon, Amir Muhammad Nodirxon va Zohishoh davrida mamlakat tashqi siyosatida ochiqlik, dunyoviy davlat barpo etish borasida bir qator e'tiborga molik ishlar amalga oshiriladi. Tadiqotchi Alfred Jasinsning pushtun sulolalarining davlat boshqaruvidagi roli xususida quyidagi fikrlari e'tiborga molikdir: "Zamonaviy Afg'oniston tarixidagi markaziy hukumatlar doimiy ravishda ijtimoiy va iqtisodiy modernizatsiya islohotlarini amalga oshirishga urinib ko'rdilar, ammo ma'lum darajada qabilalarning yordami bilan muvaffaqiyatga erishdilar. Hukumatlar qabila madaniyatiga (masalan, Sovet istilosiga olib kelgan kommunistik mafkura) mafkura yoki islohotlarni amalga oshirganda, pushtun qabilaviy va diniy jamoalari qo'zg'olon ko'taridilar, natijada hukumatlar ag'dariladi yoki ochiq tartibsizlik paydo bo'ladi. Bu mamlakatni boshqarayotgan pushtunlar bilan qabila jamoalaridagi pushtunlar o'rtasida farq borligini ko'rsatadi [11]. Qayd etish o'rinliki, qariyb uch asrdan buyon pushtun sulolalarining boshqaruvi davrida tashqi va ichki muammolarga qaramasdan mamlakat mustaqilligini saqlab qolindi. Biroq, shuni ham

qayd etish lozimki, etnoslar va sulolalar o'rtasida davom etib kelayotgan hokimiyat uchun kurash, etnik ozchiliklarning huquq va erkiliklari yo'lidagi qarshilik harakatlari natijasida Afg'oniston ulkan muammolar girdobida qoldi.

XULOSA.

Yuqorida keltirilgan tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, uzoq yillardan beri Afg'onistonda Sadozoy va Barakzoilar sulolalasi oliy hokimiyatga egalik qilib keldi. Mazkur sulolalar o'rtasida kelib chiqish tarixi hamda oliy hokimiyatga egalik qilish istagiga ko'ra doimiy raqobat mavjud. Sulolalar o'rtasidagi hokimiyat uchun keskin raqobat ma'lum manoda ularning bir millat sifatida birlashishiga monelik qiladi. Shuningdek, Afg'onistonni tanazzulga yuz tutishida va siyosiy rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatgan asosiy omil tashqi kuchlar ta'siri bilan bir qatorda bir xil etnik guruhlar o'rtasidagi sulolalararo qarama-qarshiliklar ekanligiga tarix guvoh.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. A Dictionary of the Patlian Tribes on the North-West Frontier of India / General Staff Army Headquarters, India -Calcutta: Superintendent Government Printing, 1910. –P. 1-2.
2. Alfred Jasins. The Afghan Government's Relationship with the Pashtun Community and its effect on Stability; a Comparative Approach. 2012. – P. 7.
3. Cultural Intelligence for Military Operations. Pashtuns in Afghanistan. – P. 4.
4. Meredith L. Runion The History of Afghanistan. "Greenwood Press". London. 2007. –P. 73.
5. Olaf Caroe. The Pathans 550 B.C. – A.D. 1957. Macmillan. London. 1958. – P. 255.
6. Thomas Barfield. Afghanistan a cultural and political history. Oxford. United Kingdom. 2010. – P. 25.
7. Абдуллоев Р. Пуштуны в политической жизни Афганистана. Центральная Азия и Кавказ. Том 16. Выпуск 3. 2013 – С. 88.
8. Бўронов С.М. Афғонистонда тинчлик ва барқарорлик ўрнатиш жараёнларида Ўзбекистон геосиёсати. – Т.: "EFFECT-D". 2021. – С. 11.
9. Мирзоев С.Т. Афганский кризис и его влияние на региональную безопасность в Центральной Азии: Геополитический аспект. Душанбе. 2019. – С. 86.
10. Шумов С., Андреев А. История Афганистана. «Крафт». Москва. 2002. – С. 46.
11. د افغانستان د هېواد په معاصره دوره کې اداره منجمنت او د هغو سيستمونه. خبرنوال حفيظ الله حداد. ۱۲۱ مخونه. كال: ۱۳۹۷. د علومو اکادمۍ اسلامي جمهوريت
12. (Hafizulloh Haddod. Mamlakatning hozirgi davrdagi boshqaruv va uning tizimlari. Afg'oniston Islom Respublikasi Fanlar akademiyasi. Yili: 1397. 121 bet.)